



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 2 (1601), 2026-yil 6-yanvar, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTONNING FAOL DIPLOMATIYASI:

jadal muloqotdan aniq natijalargacha

2025-yil O‘zbekiston uchun sifat jihatidan yangilanish va tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash bosqichi bo‘ldi. Geosiyosiy keskinlik kuchayib borayotgan, global institutlar transformatsiyasi, resurslar va bozorlar uchun raqobat kuchayib borayotgan murakkab va noaniq xalqaro vaziyat sharoitida O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida mamlakat ochiq, pragmatik, faol va tashabbuskor tashqi siyosat yuritmoqda. Aynan shunday yondashuv nafaqat tashqi aloqalarning barqarorligini saqlab qolish, balki ularga mamlakatning uzoq muddatli manfaatlarini va ichki rivojlanish vazifalariga mos keladigan yangicha mazmun baxsh etish imkonini berdi.

Prezidentimiz 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilindigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonning diplomatik strategiyasi mamlakatdagi keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiyalar, xorijlik sayyohlarni jalb qilish, eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay tashqi sharoitlarni shakllantirish, gumanitar

va madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Ochiqlik, teng huquqli sheriklik, o‘zaro hurmat, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquq normalariga qat’iy rioya qilish tamoyillari doimo tashqi siyosiy yo‘lining asosini tashkil etib kelgan.

Dunyoning ko‘zga ko‘ringan yetakchilari bilan oliy darajadagi siyosiy muloqot yangi bosqichga ko‘tarildi va muntazamlik kasb etdi. AQSH, Xitoy, Rossiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya va qator arab davlatlari rahbarlari bilan yangi kelishuvlarga erishildi. 2025-yilda



Buyuk o‘zbek yo‘li

davlat va hukumat rahbarlari darajasidagi ikki tomonlama uchrashuvlar soni 55 tadan oshgani xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi.

Davomi 2-betda

MILLAT BAXTINING YO‘L XARITASI

yoxud Prezidentimiz Murojaatnomasini o‘qib...

Murojaatnomada xalqimizni quvvontirgan yangi tashabbuslar, xulosalar, hatto odamning aqlini shoshiradigan xushxabarlar yangradi: “Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik”, “Biz o‘zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o‘zimiz, o‘z aql-zakovatimiz va mas’uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz”, “2030-yilda erishiladigan marraga 2026-yilning o‘zida bemalol erisha olamiz”, “Sanoatda “Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish” dasturini boshlaymiz”, “To‘rtinchi sanoat inqilobi markazi” tashkil etiladi”, “2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz”, “O‘zbekiston tarixida ilk bor kosmik sun‘iy yo‘ldosh va birinchi o‘zbek kosmonavti fazoga uchiriladi”, “Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim” kabilar shular jumlasidandir.

Davomi 3-betda

Munosabat

El-yurtning tinchlik-osoyshtaligi, oilalar farovonligi, mahallalar obodligi, o‘g‘il-qizlarimizning baxtli-saodatli kelajagiga ishonch bilan umrguzaronlik qilish hamma davrlarda ham odamlarning eng ezgu niyati bo‘lgan. Bugun biz otabobolarimiz asrlar mobaynida orzu qilgan ana shunday niyatlarining ro‘yobini ko‘ryapmiz.

Mamlakatimizda kechayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga, davlatimiz rahbari yetakchiligidagi barcha sohalarni izchil rivojlantirish, xalqimiz farovonligini ta’minlash, yurtimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqei yuksaltirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarga dunyo ahli alohida e’tibor bilan qarayotgani hech kimga sir emas. Keyingi yillardagi iqtisodiy o‘shish samarasi odamlarimizning turmush tarzida, hayotidagi farovonlikda, oilalar daromadida, mahallalar, qishloq va shaharlarimizning obod qiyofasida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqimizning orzu-niyatlari ushlayotgan, tadbirkorlik rivojlanib, yurtdoshlarimizning daromadi oshib borayotgan bugungi munavvar kunlarimizning qadri banchalik ulug‘ ekanligini biz kekxa avlod vakillari yaxshi bilamiz.

2025-yilni katta yutuqlar bilan kuzatib, 2026-yilni qalbimizda shukronalik,

BUGUNGI KUN QADRINI NURONIYLARDAN SO‘RANG



ertangi kunga katta ishonch bilan kutib oldik. O‘tgan yil el-yurtimiz uchun qutbarakali, xayrli, manfaatli yil bo‘ldi. Prezidentimizning xalqimizga yo‘llagan Yangi yil tabrigida ta’kidlaganidek, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi. Mamlakatimiz o‘rta daromadli davlatlar qatoridagi o‘rnini mustahkamladi.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi bu nafaqat yurtimizdagi hayotbaxsh islohotlarning izchil davom ettirilishi, mahalla tizimini yanada mustahkamlash, uning infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirishni, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga

qaratilgan keng ko‘lamli davlat dasturlarini amalga oshirishni ham anglatadi. Ushbu tashabbus, eng avvalo, yurtimizda inson qadri yuksaltirish, xalqimizning farovon turmushi, baxtli-saodatli hayotini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Davomi 2-betda

INSON QADRIDAN BOSHLAGAN TARAQQIYOT – YANGI O‘ZBEKISTON FENOMENI

O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga taqdim etgan Murojaatnomasining deyarli har bir qismida “islohotlar natijasi har bir inson hayotida sezilishi kerak” g‘oyasi o‘ta aniq ifodalandi. Bu tamoyil inson huquqlarini ta’minlashdagi asosiy mezon sifatida islohotlar zanjirini belgilab bermoqda.

Nuqtayi nazar

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 6 ta yo‘nalishdagi g‘oya va strategik tashabbuslarni inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan yagona tizimning o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi ustunlari deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davomi 4-betda

BINALI YILDIRIM: TURKIY DUNYO ICHIDA O‘ZBEKISTON BOR EKAN, ISTIQBOL SARI ISHONCHLI ILDAMLASHDA DAVOM ETAMIZ

Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirim “Dunyo” AA muxboriga Prezident Shavkat Mirziyoyevning parlament va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi haqida fikr bildirdi:

— Yangi yilga ham qadam qo‘ydik. 2026-yilga marhabo dedik. Yangi yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va butun qardosh o‘zbek xalqiga omonlik, tinchlik-xotirjamlik va farovonlik tilab qolaman. Turkiyadan 85 million qardoshingiz salomi va ehtiromini Sizlarga yubormoqdamiz.

Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida so‘nggi 9 yil davomida, ya’ni 2016-yildan bugunga qadar ulug‘vor Yangi O‘zbekiston g‘oyasi ila mamlakatni tubdan yangiladi. Bu o‘zgarishning ilk nishonasini xorijiy valyuta bo‘yicha kursni erkinlashtirishda kuzatgan edik.

Davomi 2-betda

Uchinchi Renessans poydevori

XALQIMIZNING BUNYODKORLIK DAHOSI BILAN BARPO ETILGAN NOYOB MEROS

Bugun yurtimizning har bir hudud, tuman, hatto mahallasining ham ma’naviyat va ma’rifat markazi bor. Bular qatoriga yana Mustaqillik, Xotira, G‘alaba maydonlari, Adiblar xiyoboni va majmualarini, tarixiy qadamjolar, istirohat bog‘lari, maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi katta-kichik kutubxonalar, badiiy to‘garaklar, muzeylarni qo‘shish mumkin. Ular orasida mahobati va salobati bilan alohida mavqe kasb etayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi majmuasi esa qisqa muddatda dunyoni o‘ziga rom etdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.



Hozir dunyo miqyosida muhim geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda Prezidentimiz ilgari surayotgan “Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish” g‘oyasi jahon hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Mazkur tashabbus ko‘plab ekspertlar e’tirof etganidek, insoniyat taraqqiyotining yangi tamaddun modeli sifatida yuqori baholanyapti.

Yangi davr tasodifan shakllanmaydi. Avvalo, u inson shuurida uyg‘onib, keyin hayotimizda namoyon bo‘ladi. Tamaddunlarning yuzaga kelishi uchun

insonlarni birlashtiradigan, ularning intilishini taraqqiyotga yo‘naltira oladigan ulkan va ilg‘or g‘oyalar tug‘ilishi shart. Bunday g‘oyalar odamzod tafakkurini, ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va texnologiyalar rivojini tubdan o‘zgartira oladi. Ana shunday g‘oyalar mevasi bo‘lgan mazkur ulkan va noyob loyiha O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan boshlanib, 2018-yili Ramazon hayiti kuni poydevor qo‘yilgan edi.

Davomi 6-betda

